

**KINODISKURS LINGVISTIK SISTEMANING BIR QISMI SIFATIDA****Ollomurodov Arjunbek Orifjonovich***Osiyo xalqaro universiteti**Tarix va filologiya kafedrası ingliz tili fani o`qituvchisi***E-mail: [ollomurodovarjunbekorifjonovich@oxu.uz](mailto:ollomurodovarjunbekorifjonovich@oxu.uz)**

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri diskurs masalasidir. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikdagi diskurs yo'nalishlaridan biri bo'lmish kinodiskursning ahamiyati hamda uning kognitiv jihatlari lingvistik sistemaning bir turi sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, kinodiskursning til va madaniyat orasidagi muhim ko'prik vazifasini bajarishi turli misollarda yorqin ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** diskurs, tafakkur, kognitiv, pragmatik, madaniy sath, mentalitet, verbal, noverbal, diskursiv yondashuv.

Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. V.Z. Demyankov fikriga ko'ra, XX asr so'ngidagi tilshunoslikdagi ustun nazariyalardan biri diskurs tahlil nazariyasidir. Diskurs tahlilning maqsadi nega boshqa emas, aynan shu gaplar ishlatilgan, nega aynan shu ijtimoiy manbalar ishlatilishining kuchlari ishga solinganligini tushuntirishdir. Diskurs tushunchasi juda keng ma'noni anglatib, tilning qaysi sathida qo'llanilishiga ko'ra uning ma'lum vazifasi ham o'zgaradi. Kino har bir millatning madaniyati, uning tili, tarixi hamda tafakkur dunyosini aks ettiruvchi noyob aloqa vositasi sanaladi. Kinodiskursni tadqiq qilish deganda, uning eng muhim komponentlari, ularning bir-biri bilan aloqasi, shuningdek, mahalliy va xorijiy kinotomoshabinlar mansub bo'lgan mentalitet va madaniyatni hisobga olgan holda kino matnini idrok etish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tushuniladi. Kino o'zining paydo bo'lishidan boshlab semiotikani o'rganish obyekti bo'lib kelgan. J.Linzbax o'z asarlarida kinoga ma'no ifodalashning og'zaki va noverbal vositalari, "ko'p tilli" san'at birikmasi sifatida e'tibor bergan. Yu.M.Lotman kinoni semiotika nuqtai nazaridan o'rgangan eng ko'zga ko'ringan olim edi. U filmni yuqorida aytib o'tganimizdek, matn sifatida ko'rib, uni semiotika nuqtai nazaridan, ma'no hosil qilish nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Shu bilan birga, filmning noverbal komponentiga (operatorlik, montaj, rang bilan ishlash, ovoz) alohida e'tibor berildi. Millionlab tomoshabinlarni jalb etish qobiliyatiga ega bo'lgan, jamiyat ahvolini oynadek aks ettiradigan, har bir insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, estetik didi shakllanishiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadigan san'at turi bu shubhasiz – kinodir. Kinodiskursda hayotni aks ettirishning o'ziga xos imkoniyati mavjud bo'lib, voqea sodir bo'layotgan davrlarni



tasvirlash erkinligiga ega, shuning uchun sotsiolingvistika nuqtai nazaridan, kinodiskursga voqelikni idrok etishning haqiqiy shakli sifatida qaraladi. U turli kategoriyalar, masalan, vaqt, makon, o'tmish, kelajak, erkinlik, qonun, kuch, sevgi, burch va boshqalarni talqin qilish yoki qayta talqin qilish imkoniyatini beradi. Nutqning tipik ishtirokchilari obrazi, muloqotning ijtimoiy uslublari va madaniy qadriyatlar namoyishi aks etadigan kino tasvirlari (kinoobraz) tufayli kinodiskurs atrofida voqelikni idrok etishni obyektivlashtiruvchi ijtimoiy bilim manbai bo'la oladi.<sup>17</sup> Masalan, aynan kinoqahramonlar tomonidan bizga ko'rsatilgan, hind ijodkorlari tomonidan yaratilgan kinofilmlarda xalqning milliy kiyimi bo'lgan "sari" deb atalishi, ularning ko'pxudolik diniga mansubligi, beva qolgan hind ayoli uchun eng beshafqat marosim "sati" deb yuritilishi kabi madaniy qadriyatlar to'g'risida ilk ma'lumotni tegishli adabiyotlardan emas, balki bevosita badiiy film namoyishi chog'ida olganmiz. Kino nutqining ta'riflaridan biri S.S. Nazmutdinovaga tegishli bo'lib, u kino nutqini "muallif va kino oluvchi o'rtasidagi tillararo va madaniyatlararo makonda kino tili yordamida kechadigan semiotik jihatdan murakkab, dinamik o'zaro ta'sir jarayoni" deb ta'riflaydi. Kinodiskursni tahlil qilishning kognitiv-diskursiv yondashuvi uning quyidagi parametrlarini batafsil ko'rib chiqishni taqazo qiladi:

- muloqot ishtirokchilari (qahramonlarning umumiy xususiyatlari yoki ijtimoiy-situatsion ko'rsatkichlarning minimal to'plami);
- muloqot maqsadlari (masalan, hissiy aloqa, ma'lumot almashish, retsiptentga ta'sir o'tkazish va h.k.);
- muloqot shartlari (atrof-muhit, vaqt, joy va muloqot ishtirokchilarining hattiharakatlari);
- muloqot usuli (dialog va muloqot ohangi);
- kommunikativ muhit (nutqiy faoliyat, muloqot ishtirokchilari, uzatilgan/ qabul qilingan ma'lumotlar va boshqalar);
- vizual komponentlar.<sup>18</sup>

Filmni tomosha qilish jarayonida tomoshabin ekranga olib chiqilgan kino va kundalik so'zlashuv diskursi o'rtasidagi kichik farqlarga e'tibor qaratmasa-da, aynan shu kabi tafovutlar til tabiatini yanada chuqurroq anglab yetishimizda katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, kundalik so'zlashuv diskursida so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, suhbatdosh bilan bir vaqtning o'zida gapirib yuborish yoki o'z nutqini (aytilgan fikr) to'g'rilab ketish kabi holatlar ko'p uchrasa, kinodiskursda esa bu holatga kamdan-kam duch kelamiz,<sup>19</sup> shuning uchun ham kinodiskursda uchrab turadigan bu kabi holatlar tomoshabinga filmning asl mohiyatini tushunishiga to'sqinlik qilmagani holda, ulardan foydalanishni ham cheklamaydi.

<sup>17</sup> Сорока Ю. Г. Кинодискурс повседневности постмодерна. – Харьков: Харьковский нац. ун-т им. Н. В. Карамзина, 2002. – С. 47-49.

<sup>18</sup> Колодина Е.А. Статус кинодиалога в ряду соположенных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс // Вестник Нижегородского ун-та им. Н. И. Лобачевского, № 2. 2013. – С. 327-333.

<sup>19</sup> Richardson K. Television Dramatic Dialogue. A Sociolinguistic Study. – New York: Oxford, 2010. – P. 63-105.



Barchaga ma'lumki, har bir insonda o'ziga xos nutq odobi shakllangan. Aynan kundalik muloqotda so'zlovchining nutq odobi va kommunikativ layoqati yuzaga chiqadi, shunga ko'ra kommunikantlar bir-birlarida turlicha taassurot qoldiradilar. Bunda til hal qiluvchi rol o'ynaydi albatta. R.Lakoffning fikricha, "til – inson faoliyatining ajralmas qismidir. Lingvistik uslub psixologik uslubning hosilasi bo'lishi bilan birga uning tashxisi hamdir. Insonlarning gapirish usuli bizga ular haqidagi barcha haqiqatni aytadi, deb o'ylaymiz".<sup>20</sup> Yuqorida bildirilgan fikrlar kinodiskurs tavsifiga ham aynan mos tushishi mumkin, chunki kinodiskurs matni ma'lum darajada yaratilajak filmning "tasvirini", shundan kelib chiqqan holda, bosh qahramonning "siyrati" ni ham oldindan belgilab beradi. Kinodiskursning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati uni lingvistik sistemaning bir qismi sifatida butun til sathlari asosida atroflicha o'rganilishiga yo'l ochib beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lakoff, Robin. Talking Power: The Politics of Language. – New York: Basic Books. 1990.
2. Richardson K. Television Dramatic Dialogue. A Sociolinguistic Study. – New York: Oxford, 2010. – P. 63-105.
3. Колодина Е.А. Статус кинодиалога в ряду соположенных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс // Вестник Нижегородского ун-та им. Н. И. Лобачевского, № 2. 2013. – С. 327-333.
4. Сорока Ю. Г. Кинодискурс повседневности постмодерна. – Харьков: Харьковский нац. ун-т им. Н. В. Карамзина, 2002. – С. 47-49.
5. Orifjonovich, O. A. (2023). METAFORANING KO'P TARMOQLI VA FANLARARO O'RGANILISHI.
6. Ollomurodov, A. (2023). MULTIDISCIPLINARY AND INTERDISCIPLINARY STUDY OF METAPHOR. Modern Science and Research, 2(9), 136-139.
7. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. Scientific Impulse, 1 (3), 594-600.
8. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN ORNI. Scientific Impulse, 1(3), 594-600.
9. Sulaymonovna, Q. N., Tashpulatovna, K. M., & Orifjonovich, O. A. (2023). COGNITIVE AND LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 849-854.
10. Sulaymonovna, Q. N., & Orifjonovich, O. A. (2023, May). XOLID HUSAYNIYNING ASARLARI TARJIMALARIDA KONSEPTUAL METAFORALAR TALQINI

<sup>20</sup> Lakoff, Robin. Talking Power: The Politics of Language. – New York: Basic Books. 1990.



VA TAHLILI. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 147-150).

11. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. Journal of new century innovations, 35(1), 79-80.

12. Adizovna, S. M. (2023). DEVELOPING SUMMARY WRITING SKILL IN ACADEMIC WRITING.

13. Xalilova, K. K. (2023). ACADEMIC VOCABULARY. HOW TO TEACH AND STUDY IT. Modern Science and Research, 2(9), 78-80.

14. Utkerovna, B. S. (2023). SHUM BOLA ASARINING TARJIMASIDA TARJIMON MAHORATI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).

15. Rizoqulovna, N. D. (2023). LEARNING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE: CHALLENGES AND STRATEGIES.